O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
DEHQONOBOD TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Manzil: Dehqonobod tumani.Qorashina shaharchasi M.Ulug‘bek ko‘chasi indeks: 180400 tel-faks: (75) 612-13-31

2023 - yil 22 - dekabr 321-4-57-Q/23 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumanida 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’i nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam

tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xat boshida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligining ichki va soqchilik qo‘shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Dehqonobod tuman hokimining 2022-yil 7-dekabrdagi 420-4-57-Q/22-sonli “Dehqonobod tumanida 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori 2023-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini

yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Sh.Ergashov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Isomiddinovich S. A.**

Dehqonobod tuman hokimining
2023-yil 22-dekabrdagi
321-4-57-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

B. Nazarov		Dehqonobod tuman ichki ishlar bo‘limi JXX yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, podpolkovnik

Komissiya a’zolari:

S.Xasanov	-	Qashqadaryo viloyati transport boshqarmasi mas’ul xodimi
Sh.Jurayev	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi
O‘.Jo‘lliyev		Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi
J.Safarov	-	Tuman “Vatanparvar” tashkiloti raisi
S.Sattorov	-	“N B B” X/Kning xodimi

Komissiya kotibi:

M.Xasanov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori, leytenant

Dehqonobod tuman hokimining
2023-yil 22-dekabrdagi
321-4-57-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1	Tuman Veterinariya bo‘limi	01.03.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
2	Dehqonobod O‘rmon xo‘jaligi	04.03.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
3	Tuman Elektr tarmoqlari korxonasi	05.03.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
4	Tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati	11.03.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
5	Tuman Tibbiyot birlashmasi	12.03.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
6	“Vatanparvar” USTK	02.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
7	“Dehqonobod Kaliy zavodi” AJ	03-.04-.04. 2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
8	Enter Enijeering PTE L.T.D.	08-11-.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
9	“Istiqlol, Shodlik va Koinottrans”M.Ch.J	12.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
10	“Koinotgazplyus” M.Ch.J.	15.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
11	“Abdiraimota” X/K	16.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
12	“Abdiraimota” x/f.	16.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
13	“Zebinso” X/K	17.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
14	“Qarashina texnoservis”	17.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
15	“Abbos” X/F	18.04.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
16	Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	01.05.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	

17	“Ruxshonabonu chiroy” X\F	02.05.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
18	“Qishloq va suv” xo‘jaligi	03.05.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
19	Tumandagi Fermer xo‘jaliklari	13-14-15.05.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
20	“Ruxshonobonu chiroy” x/f.	13.05.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
21	“Dolchin” M.Ch.J.	03.06.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
22	“O‘lug‘bek” X/K	04.06.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
23	“Abduraxmanov Axrorbek” f/k.	05.06.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	
24	“Fayzullo ota” f/x	06.06.2024	09-00	Qorashina shaharchasi	